

EKSTREMISTIK VA RADIKAL G‘OYALARNING ILMIY NAZARIY TASNIFI

Alimov Akmalbek Abdumajidovich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti

Annotasiya. Ushbu maqolada ekstremistik va radikal g‘oyalarning ilmiy nazariy tasnifi haqida so‘z boradi. Tahlillarni amalga oshirishda dastlab “ekstremistik” va “radikal” atamalarning mazmun mohiyati akademik lug‘atlar hamda tadqiqotchilar tasnifi yordamida ochib beriladi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusi yuzasidan mahaliy va xorijlik olimlarning tadqiqot ishi natijalari tahlil qilinib, mavjud muammolar xususida tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ekstremizm, radikal g‘oyalar, boshlang‘ich tushunchalar, yo‘nalishlar.

Abstract. This article talks about the scientific theoretical classification of extremist and radical ideas. In the course of the analysis, the meaning of the terms «extremist» and «radical» is revealed using academic dictionaries and researchers' classification. Also, the results of the research work of local and foreign scientists on the topic of this article are analyzed, and relevant suggestions and recommendations are given regarding the existing problems.

Key words: extremism, radical ideas, initial concepts, trends.

KIRISH

Ekstremizm XX-asr dunyo hamjamiyati uchun daxshatli so‘z va tushuncha hisoblanadi.

Ekstremizm hamma joyda jamiyat uchun noqonuniy va xavfli hodisa sifatida tan olingan. 1838-yilda mazkur ekstremizm termini ilk marta katta falsafiy lug‘atda nemis olimi Vilgelm Traugotta ishlatgan bo‘lib, unga ko‘ra “ekstremistlar o‘rtada emas chetda bo‘lishni xohlovchilar” deb izohlangan[1]. Huquqiy nuqtai nazardan ushbu atama ilk bor o‘tgan asrning boshlarida fransuz advokati M. Leroy (M. Leroy) tomonidan diniy yoki siyosiy idealga haddan tashqari fanatiklik va g‘ayriinsoniy e‘tiqod sifatida talqin etilgan[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Ekstremizm” (fransuzchadan “extremisme” lotinchadan “extremis”) atamasi XX asrning boshidan beri faol qo‘llanila boshlandi. Odatda, “ekstremizm” tushunchasi siyosat va mafkuradagi ekstremal qarashlar va harakatlarga rioya qilishni anglatadi.

V. N. Panin ta’kidlashicha, “sovuq urush tugaganidan keyin, ekstremizm eng katta xalqaro muammoga aylandi, uning milliy xususiyatlari yo‘q, u shafqatsizlik va ekstremistlarning orqa-oldiga qaramasdan harakatlanishi bilan ajralib turadi. Global axborot makonining paydo bo‘lishi ekstremizmning yanada o‘shish ehtimolini oshirdi, u tobora ko‘proq halokatli shakllarga ega bo‘la boshladi”[3].

Ekstremizm ma’naviy tahdidlarning bir navi bo‘lib, undan foydalanuvchi shaxslar yoki tashkilotlar o‘zlariga mansub bo‘lgan tarafdorlarini radikal harakatlarga chorlovchi, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarishga intiluvchi, mavjud konstitusion tuzumni ag‘darib tashlashga da’vat etuvchi tajovuzkor siyosiy faoliyat hisoblanadi.

Ekstremistik g‘oyalar kishida zulm va zo‘ravonlik his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ekstremistik g‘oyalar o‘zgalarga zo‘ravonlik qilish, o‘zgalarga ozor berishga undaydi. O‘zgalarga ozor berish, o‘zgalarga zo‘ravonlik qilish esa bu zulmdir.

Biroq, ushbu hodisaning mutaxassislar tomonidan turlicha ta’riflanishi uni ilmiy asoslash va talqin qilish zarurligidan dalolat beradi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlilidan hozirgi kunga kelib “ekstremizm” tushunchasining aniq ta’rifi mavjud emasligi ma’lum bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotchilarning ekstremizmga bergan ta’riflarida farqli va o‘xshash jihatlar mavjud.

Masalan, N.N.Afanasev: “Ekstremizm har qanday mutanosiblik tuyg‘usini ilk inkor etish demakdir. U o‘z niyatlarini darhol va ko‘p vaqt davomida amalga oshirishga harakat qilish maqsadida borliq haqidagi buzilgan, deformatsiyalangan tasavvurlar bilan ishlaydi. Tilda bu hukmlarning ekstremalligi, qat’iyligida ifodalanadi. Amalda, bu muqarrar ravishda zo‘ravonlikka olib keladi,”- deya ekstremizmga ta’rif beradi[4]. Tadqiqotchi E. V. Ulezko ekstremizmni zo‘ravonlik usullaridan foydalangan holda ekstremizm sub’yekti oldida turgan maqsadlarga erishishga qaratilgan noqonuniy faoliyat turi sifatida ta’riflaydi. Bunda, uning fikriga ko‘ra, faqat jismoniy zo‘ravonlik, axloqiy majburlash, iqtisodiy bosim va hokazolardan qat’i nazar, zarur ta’sir darajasidan oshib ketgan harakatlarni ekstremistik deb atash mumkin[5]

Siyosiy psixologiyada ekstremizmning *iqtisodiy, siyosiy, millatchilik, diniy, ekologik, ma’naviy* kabi turli yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Bir qator tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, real hayotda ekstremizm shakllari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va, odatda, sof shaklida namoyon bo‘lmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekstremizmning deyarli barcha turlari zo‘ravonlik (ko‘pincha qurollangan) yoki uning tahdidi, jamoat muammolarini idrok etishda bir tomonlama bo‘lish, fanatizm, o‘z tamoyillari va qarashlarini raqiblarga majburlab singdirish, barcha buyruqlar, ko‘rsatmalarni so‘zsiz bajartirish, his-tuyg‘ular, instinktlarga bosim o‘tkazish, aql emas, bid‘atlarga tayanish, bag‘rikenglikka layoqatsizlik, murosa qila olmaslik kabi umumiy xususiyatlarga ega. “...Zamonaviy ekstremizmning xususiyatlari – bu salohiyatni oshirish va ekstremistik guruhlarining nufuzli tuzilmalariga aylanishi bilan birga ko‘lamning kengayishi; ekstremistik harakatlarning shafqatsizligi va loqaydligi; faoliyatning turli shakllari, so‘nggi texnik yutuqlardan, ommaviy qirg‘in vositalaridan foydalanish (kimyoviy, bakteriologik qurol komponentlari, radioaktiv materiallarni o‘g‘irlash); jamoat rezonansiga erishish istagi, aholini qo‘rqitish. Ayrim mamlakatlarda va xalqaro miqyosda ekstremistik jamoalar va guruhlarining axborot, taktik va strategik, moliyaviy, mafkuraviy, psixologik va resurslilik jihatidan o‘zaro bog‘liqligi kengaymoqda” [6].

V. Amelinning so‘zlariga ko‘ra, «ekstremist o‘z qadriyatlarini umume’tirof etilgan qadriyatlardan ustun qo‘yadi. Xulq-atvor strategiyasi u tomonidan uning uchun oliy hisoblangan, lekin aholining aksariyati qabul qilish va tushunish uchun hali yaxshi yetilmagan qadriyatlarni amalga oshirish sifatida qaraladi. Shuning uchun ekstremizmning o‘ziga xos eng asosiy xususiyati siyosiy jarayonga «oq-qora» ranglarda qarash, yangi qadriyatlar tizimi tarafdorlarini boshqalarga qat’iy qarshi qo‘yishdan iboratdir»[7].

Ekstremizm xususida M. Ya. Yaxyoyevning tadqiqotlari ham alohida e’tiborni tortadi. Uning ta’kidlashicha, ekstremizm shaxsni umuminsoniy, madaniy va etnomilliy qadriyatlardan begonalashtirish shakli sifatida paydo bo‘ladi. Shuning uchun ekstremizm keng tarzda tushunilishi kerak. Uni siyosiy yoki boshqa o‘ziga xos shaklda bo‘ladi deyish mumkin emas, chunki u inson faoliyatining ko‘plab sohalarida va shaxslararo muloqotda (ichki ekstremizm kabi), sinflar, partiyalar, davlatlarning o‘zaro munosabatlarida (siyosiy ekstremizm) va qabilalar elatlar, millatlar munosabatlarida (etnik ekstremizm sifatida) namoyon bo‘lishi kuzatiladi». Shuning uchun ham, «ekstremizm ijtimoiy amaliyotning o‘ta, buzg‘unchi shakllaridan biri sifatida qaralishi kerak». Bunday nuqtai nazar ekstremizmning mohiyatini aniqlashda faoliyatga asoslangan yondashuvdan kelib chiqish kerakligini bildiradi[8].

2001-yilning 14-iyundagi “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Shanxay Konvensiyasi” ga binoan ekstremizm hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallab olishga yoki hokimiyatni zo‘ravonlik bilan ushlab turishga, davlatning konstitutsiyaviy tuzumini majburan o‘zgartirishga, shuningdek jamoat

xavfsizligiga zo‘ravonlik bilan tajovuz qilishga, shu jumladan yuqoridagi maqsadlar uchun qurolli guruhlarini tuzish yoki ularda ishtirok etishdan iborat noqonuniy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan harakat deb nomlangan[9].

Doktor Piter Koulman (Peter T. Coleman) (Kolumbiya universiteti qoshidagi xalqaro hamkorlik va nizolarni hal qilish markazi) va Adrea Bartoli (Andrea Bartoli) (Meysen universiteti mojarolarni tahlil qilish va hal qilish instituti) o‘zlarining “Ekstremizmga murojaat” («Addressing Extremism») nomli asarida ekstremizmni umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan faoliyatning barcha turlari (qarashlar, his-tuyg‘ular, harakatlar, strategiyalar) sifatida tavsiflaydilar [10] Nazariy jihatdan, ekstremizmni aniqlash muammosi, oxir-oqibat, ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan norma va undan og‘ish, ya’ni deviatsiya nima ekanligiga bog‘liq. Shuning uchun demokratik jamiyatlarda ekstremistlarni odatda demokratiyani yo‘q qilish va avtoritar rejimni o‘rnatish tarafdorlari yoki guruhlar, avtoritar va totalitar jamiyatlarda esa ekstremizmning aksi hisoblanadi^[11]. Shuning uchun ham «ekstremizm» terminidan foydalanishda ozmi-ko‘pmi sub’yektivlikka yo‘l qo‘yiladi. Zero, mazkur tadqiqotchilarning fikricha, masalan, partizan urushini ham «ozodlik uchun kurash», ham «ekstremizm» yoki ham «terrorizm» deb atash mumkin[12].

V. N. Konovalov ekstremizm huquqiy nigizi ekanligini va siyosiy ekstremizmning eng ekstremal ifodasi terrorizm — zo‘ravonlik bilan jamiyatni muntazam qo‘rqitish, provokatsiya qilish va beqarorlashtirish ekanligini ta’kidlaydi. Mafkuraviy jihatdan ekstremizm insonning asosiy his-tuyg‘ulariga murojaat qilib, dushman obrazini yaratadigan demagogik shiorlar va murojaatlardan foydalanadi. Ekstremizm terroristik harakatlarni uyushtiradi, qasddan tartibsizliklarni qo‘zg‘atadi va fuqarolarni itoatsizlikga chaqiradi. U odamlarga qiyinchiliklarni tezda bartaraf etishni, kafolatlangan tartib va ijtimoiy ta’minotni amalga oshirishni va’da qiladi, lekin buning uchun norozilikni qat’iy bostirish, o‘z siyosiy, mafkuraviy va boshqa qadriyatlar tizimini qat’iy tasdiqlash talab etiladi[12].

XULOSA

O‘zbek tadqiqotchilaridan I.I.Karimov[13]ning ta’kidlashicha, *ekstremizm* so‘zining ma’nosini ochib berishda aniq ta’rifning yo‘qligi, uning turli davlatlarda va turli davrlarda turlicha ta’lqin etilishi sababli hozirgi kunga qadar aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda, I.I.Karimov ekstremizmga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va ushbu tushunchaning turli davlatlarnig qonunchiligida aks etishidan kelib chiqqan holda uni 3 guruhga bo‘lib tadqiq etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И.И. Экстремизм тушунчаси, шакллари ва моҳияти: қиёсий ҳуқуқий таҳлил. // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. No 4 (2023) Б. 52-60.
2. <https://yabmk.ru/wp-content/uploads/2023/04/ekstremizm.pdf>
3. В. Н. Панин. Религиозный экстремизм как один из факторов дестабилизации социально-политической жизни на Северном Кавказе. Пятигорск, ПГЛУ, 2013.
4. Афанасьев Н. И. Идеология терроризма // Социально-гуманитарные знания. 2002, № 1.
5. Улезко Э. В. Экстремизм и терроризм: понятийно-категориальный аппарат исследования явления // www.kai.ru.
6. Политическая психология: Учебное пособие для вузов / Под общей ред. А. А. Деркача, В. И. Жукова, Л. Г. Лаптева. — М.: Академический Проект, Екатеринбург: Деловая книга, 2001.
7. В. Амелин. Проблема противодействия идеологии радикализма и экстремизма требует нестандартных ходов. // Центр изучения региональных угроз. 28.09.2017 // <https://crss.uz/2017/09/28/v-amelin-problema-protivodejstviya-ideologii-radikalizma-i-ekstremizma-trebuuet-nestandardnyx-xodov/?ysclid=lr9n79m5k113039184>.
8. Яхьяев М. Я. Истоки и причины существования экстремизма как негативного социального явления. / <http://www.ekstremizm.ru>
9. Терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш бўйича Шанхай Конвенцияси. 14.06.2001 йил. URL. <https://LEX.uz.doc.2066678>. 155-модда.
10. Coleman P.T. Addressing Extremism / P.T. Coleman, A. Bartoli // http://www.tc.columbia.edu/i/a/document\9386_WhitePaper_2_Extremism_030809.pdf.
11. Словарь по политологии / отв.ред. В. Н. Коновалов. — Ростов — на — Дону: РГУ, 2001.
12. Каримов И.И. Экстремизм тушунчаси, шакллари ва моҳияти: қиёсий ҳуқуқий таҳлил. // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. No 4 (2023) Б. 52-60.